

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

**TALABALARDA IJTIMOY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING
PEDAGOGIK ASOSLARI**

Abdulxayeva Malikaxon Abduaziz qizi

Qo'qon DU o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishning pedagogik asoslari, uning bosqichlari hususida ayrim fikr-mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek maqolada, "ijtimoiylashuv", "ijtimoiy ko'nikma" tushunchalari adabiyotlar vositasida tahlil qilib o'tilgan. Ijtimoiylashuv jarayoni va uning o'ziga xos xususiyatlari falsafa, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, pedagogika, tarix va etnografiya fanlari tomonidan o'rganiladi.

Kalit so'zlar. Ijtimoiylashuv, ijtimoiy ko'nikma, rivojlantirish, mahorat, jarayon, ma'naviyat, yuksalish.

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНЫХ
НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ**

Абдулхаева Маликахон Абдуазиз кызы

Преподаватель Кокандского ГУ

Абстрактный. В данной статье представлены некоторые мнения о педагогических основах развития социальных навыков школьников и его этапах. Также в статье на основе литературы анализируются понятия «социализация» и «социальные навыки». Процесс социализации и его особенности изучают такие дисциплины, как философия, социология, социальная психология, педагогика, история, этнография.

Ключевые слова. Социализация, социальные навыки, развитие, умение, процесс, духовность, рост.

**PEDAGOGICAL PRINCIPLES OF DEVELOPMENT OF SOCIAL SKILLS IN
STUDENTS**

Abdulkhayeva Malikaxon Abduaziz qizi

Teacher of Kokand SU

Abstract. This article presents some opinions on the pedagogical foundations of the development of social skills in students and its stages. Also, in the article, the concepts of "socialization" and "social skills" are analyzed by means of literature. The process of

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

socialization and its specific features are studied by the disciplines of philosophy, sociology, social psychology, pedagogy, history, and ethnography.

Keywords. *Socialization, social skills, development, skill, process, spirituality, growth.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning tashabbuslari bilan yoshlarni ilm-fan, kasb-hunarga jalb qilish, ularni jamiyatimiz hayotiga moslashtirish, ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishlari masalalariga alohida e'tibor qaratmoqdalar. Bu sohada yillar davomida e'tibordan chetda qolib kelgan bo'shliq hamda muammolar yechimi yuzasidan tegishli davlat organlari va jamoat tashkilotlari oldiga dolzarb vazifalarni qo'yayotgani bejiz emas. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "o'quvchi-yoshlarda o'qishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan intilishni shakllantirish hamda kasb tanlash, kasbiy o'sishini mustaqil rejalashtirish, zamonaviy kasblarni egallash qobiliyatini rivojlantirish, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan intilishlarini oshirish maqsadida hamda qiziqishlari va talablarini e'tiborga olgan holda yuqori sinflarda majburiy va tanlov asosidagi fanlarni joriy qilish"[1] ta'lim tizimining ustivor yo'nalishlari sifatida belgilab qo'yilgan. Bu o'z navbatida, talabalarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, makzur jarayonning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirish, talabalarda dars va darsdan tashqari jarayonlarda ta'lim olish, mustaqil o'rganishga nisbatan ijobiy munosabatlarini shakllantirish alohida dolzarblik kasb etadi.

Maqolaning asosini tashkil etuvchi "Ijtimoiylashuv" va "Ijtimoiylashtirish" tushunchalari turli manbalarda turlicha sharxlanadi. Pedagogikaning izohli lug'atida "ijtimoiylashuv" tushunchasi "biron-bir voqea-hodisa, shaxs yoki harakatning ijtimoiy mohiyat kasb etib, ko'pchilikka daxldor bo'lib, ijtimoiy munosabatlar mujassamiga aylanib borishini anglatadigan tushuncha"[2.B.84], "jamiyatning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy-pedagogik tizim, ijtimoiy me'yor va qadriyatlarni shaxs tomonidan o'zlashtirish jarayoni" sifatida talqin qilinadi. Ijtimoiylashtirish tushunchasi esa "subyektlarda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy faoliyatni shakllantirishdan iborat bo'lgan harakat" deb ta'riflanadi.[2.B.86]

Psixologik lug'atlarda "ijtimoiylashuv" tushunchasi "inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot - faoliyat jarayonida uni faol tarzda o'zlashtirish jarayoni" sifatida talqin qilinadi.[3.B.44] "Ijtimoiylashtirish" tushunchasi esa "sezgi organlarining ta'surot kuchiga moslashuvi natijasida muayyan sezgirlikning o'zgarishi. Hayotning turli sharoitlariga shaxsning moslashuvi" deb ta'riflanadi.

O'zbek tilining izohli lug'atida "Ijtimoiylashtirish" tushunchasi "ijtimoiy tus olmoq, umumlashmoq"[4.B.178] deb ta'riflansa, "Ijtimoiylashuv" tushunchasi "jamiyat hayotiga moslashish, insonlarga yaqinlashish"[4.B.178] deb ta'riflanadi.

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

Ijtimoiylashuv jarayoni va uning o'ziga xos xususiyatlari falsafa, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, pedagogika, tarix va etnografiya fanlari tomonidan o'rganiladi. Ijtimoiylashuvning falsafiy talqiniga ijtimoiy psixologiya asoschisi G.Tard poydevor yaratgan. Shuningdek, ijtimoiylashuv muammolari Z.Freydning klassik psixozanalizida, interaksionizm, L.Vigotskiy va A.Leontev ijodida, T.Parsonsning tarkibiy-funksional tahlilida tadqiq etilgan.

Talabalarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlarni tashkil etishda ontogenetik, filogenetik yondashuvlarni inobatga olish zarur.

Ijtimoiylashuvning ijtimoiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- 1) ijtimoiy-tarixiy jarayon subyektini shakllantiradi;
- 2) madaniyat va sivilizatsiya taraqqiyotida vorislikni ta'minlaydi;
- 3) shaxsni ijtimoiy muhitga moslashtirish orqali jamiyatning bir maromda taraqqiy etishiga zamin yaratadi.

Ijtimoiylashtirish jarayoni besh bosqichni o'z ichiga oladi:

Birinchi bosqich – xatti-harakatlarning vujudga kelishi va anglanishi. Xatti-harakatlarning to'liq anglanishi harakat qanday vosita ta'sirida amalga oshganligini anglash hamda mazkur harakatni amalga oshirish usullari va natijalarini oldindan aniqlash orqali belgilanadi.

Ikkinchi bosqich – ijtimoiy jarayonlarning qabul qilinishi bo'lib, bu jarayon oilaviy munosabatlar asosida amalga oshirishni ifodalaydi. Bu bosqichda inson o'zining axloqiy tamoyillari va qadriyatlarini tahlil etib, vujudga kelgan ehtiyoj, mayl, uning uchun qanchalar muhimligi va ularni qondirish zaruriyati va buning uchun insonlar bilan aloqaga kirishishi to'g'risida qaror qabul qiladi.

Uchinchi bosqich – bu ijtimoiylashuvning amalga oshirilish bosqichi bo'lib, mazkur jarayonda vaziyatlarga ko'ra jarayonlarning mazmuni o'zgarishi mumkin.

To'rtinchi bosqich – ijtimoiylashuvning mustahkamlanish bosqichi bo'lib, bu bosqich natijasida ijtimoiylashuv xarakter belgisiga aylanadi.

Beshinchi bosqich – xatti-harakatlarning faollashuv jarayoni bo'lib, mazkur jarayonda mustahkamlangan ijtimoiylashuvning ma'lum bir xususiyati anglangan va anglanmagan holatda yuzaga chiqadi.

Shunday qilib, talabalarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish jarayoni bir necha omillarga bog'liq. Shuning uchun talabalarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish quyidagi integrativ tashkil etuvchilar doirasida o'rganish maqsadga muvofiq: pedagogning kasbiy-shaxsiy insonparvarlik sifatlarining talabalarning ma'naviy-axloqiy sifatlarining shakllanishi bilan o'zaro aloqadorligida shakllanishi, talabalarning mos sifatlarining rivojlanish kompleksining dinamik tizimlarini ishlab chiqish.

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4312785>.
2. Pedagogikaning izohli lug'ati. Toshkent.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" nashriyoti, 2015, 84-bet.
3. Psixologik atamalar lug'ati. Andijon.: "Turon-zamin" nashriyoti, 2017, 41-bet.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" nashriyoti, 2015, 178-bet

